XALQ DEPUTATLARI XIVA TUMANI KENGASHI
QARORI

220911, Xiva tumani, Shomoxulum mahallasi, Tinchlik ko‘chasi, 121-uy

2023 - yil 29 - avgust VI-88-78-12-176-K/23 Xiva tumani hokimligi

Xiva tumanidagi aholi punktining nomini qayta nomlash to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi, (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-y, 9-son, 320 modda;), “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y, 17-son, 219-modda) va “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011-y, 41-son, 448-modda) O‘zbekiston Respublikasi Qonunlariga asosan hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi 48-son Qarori bilan tasdiqlangan “Shaharlar, posyolkalar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek, ularning chegeralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-y, 10-son, 107-modda), “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish haqidagi (O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 2022-yil 2-noyabr № O‘RQ-799-sonli) Qonunlariga asosan geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasiga “Indavak ” mahalla fuqarolar yig‘ini Kengashining 2023-yil 19-fevral 16-sonli yig‘ilish bayonnomasini o‘rgangan holda tumandagi aholi punkti tarkibiy qismini (mahallalar, shohko‘chalar, ko‘chalar, maydonlar, bog‘lar, hiyobonlar) (keyingi o‘rinlarda matnda “geografik obyektlar” deb yuritiladi) qayta ko‘rib chiqish natijalaridan kelib chiqib, xalq deputatlari Xiva tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi hamda Xorazm viloyati komissiyasining taklifiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni ekspertizasidan o‘tkazish” ekspert komissiyasining 2023-yil 8-iyundagi 15-01056-sonli xulosasi ma’qullansin.

2. Ilovaga muvofiq tumandagi “Indavak” mahalla fuqarolar yig‘ini nomi “Go‘ja guzari” mahalla fuqarolar yig‘ini deb qayta o‘zgartirilsin.

3. Xorazm viloyat Davlat kadasrtlar Palatasi Xiva tuman filiali, tuman arxitektura va qurilish bo‘limi, fuqarolar yig‘ini bilan birgalikda tumandagi mahallaning nomi o‘zgarishi munosabati bilan tuman bo‘yicha tasdiqlangan yagona zamonaviy milliy dizayn asosida bir oy muddatda geografik obyekt nomi qayd qilingan peshlavha o‘rnatsin.

4. Belgilansinki, geografik obyekt nomi qayd qilingan peshlavha o‘rnatish bilan bog‘liq sarf-xarajatlar qonunda belgilangan tartibda mahalliy byudjet mablag‘lari va homiylar hisobidan qoplansin.

5. Xiva tumani statistika bo‘limi boshlig‘i v.b (Sh.Eshjanov) ushbu qarordan kelib chiqib “Indavak” mahalla fuqarolar yig‘ini o‘rniga “Go‘ja guzari” mahalla fuqarolar yig‘ini to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yuritsin.

6. Ushbu qaror “Xiva tongi” gazetasida va Xiva tumani hokimligining rasmiy veb-saytida e’lon qilinsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal xo‘jaligi masalalari va aholiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (F.Allomov) va tuman hokimining o‘rinbosari v.b (S.Yaqubov)lar zimmalariga yuklatilsin.

kengash raisi **X.R.Matrasulov**

Xalq deputatlari Xiva tuman
Kengashining
2023-yil 29-avgustdagi
VI-88-78-12-176-K/23-son qaroriga
1-ilova

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Mahalla	Xiva tumani	Indavak	Go‘ja, Go‘ja zamini, Go‘ja guzari	“Go‘ja guzari”